

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:38 (63099)

2016-yil

19-sentyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-umumta'lim maktabi xitoy tiliga ixtisoslashtirilgan bo'lib, respublikamizdagi yetakchi ta'lim maskanlaridan sanaladi. Ushbu ilm dargohining 3-«V» sinf o'quvchisi Farangiz Orolbekova chet tilini a'lo o'zlashtirayotgani uchun Xitoyning Pekin va Guanchjou shaharlariga sayohatga borish baxtiga muvassar bo'ldi. Ukasi Firdavsning ham quvonchi cheksiz. Nega deysizmi? Chunki u bu yil opasi o'qiydigan maktabning 1-sinf o'quvchisi bo'ldi-da.



Ushbu maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Vasila Rahmonova endigina maktabga qadam qo'ygan 1-«B» sinf o'quvchilarini dunyo xaritasi bilan tanishtirmoqda.

# OLTINKO'LLIK USTOZLAR – «TONG YULDUZI» MEHMONI

Ish vaqti tugashiga chorak soat vaqt qolganda, tahririyatimizga mehmonlar kirib kelishdi. Biz ularni suhbatga chorladik:

**Gulnora BAHODIROVA, Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 27-umumta'lim maktabi direktori:**

– Biz dovon oshib, vodiyan keldik. Bir necha yildan buyon Oltinko'l tumanidagi 27-umumta'lim maktabida o'quvchilarga matematika fanidan saboq beraman.

To'g'risini aytсам, Toshkentga kelganimga ancha bo'lgan edi. O'tgan vaqt da-

laridan Prezidentimiz boshlab bergan ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar bugungi kunga kelib, o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Hozirgi yoshlar zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini puxta egallagan, ikki-uch tilda bemaolol so'zlasha oladigan, xalqaro fan olimpiadalari, musiqa va sport musobaqalarida shodashoda medallarni qo'lga kiritayotgan

## OTA KASBINI DAVOM ETTIRYAPMAN

vomida poytaxtimiz tanib bo'lmas darajada chiroy ochildi. Yangi yo'llar, ko'priklar qurilibdi. Ayniqsa, Navoiy ko'chasidagi yangi ko'p qavatli turar joy binolari, favvoralarni aytmayisizmi?! Televizor orqali tomosha qilish boshqa, o'z ko'zing bilan ko'rish mutlaqo boshqacha ekan.

Maktabimiz tumanning «Oq tumor» mahallasida joylashgan. Joriy yil ta'lim dargohimiz yangi ta'mirdan chiqarildi. Mustaqilligimizning 25 yilligiga atab, o'quv maskanimiz hovlisiga 25 tup mevali, shuningdek, sakura, kashtan va archa kabi manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazdik.

Bu yil ta'lim dargohimizning 1-sinfiga 40 nafar o'quvchi qabul qilindi va barcha bolajonlarga Prezident sovg'alari topshirildi. Maktabimizda fransuz tili, matematika, tasviriy san'at, ona tili va adabiyot, mehnat kabi o'ndan ziyod fan to'garaklari faoliyat yuritmoqda. 5-sinfning iqtidorli o'quvchisi Begali Ahmatov tasviriy san'at bo'yicha tanlovlar g'olibidir. Madina Keldiboyeva, Ruxshona Shokirjonova, Gulobod Ergasheva, Muhammadmirzo Ostanaqulov, Humoyun Mullajonov, Zaynabxon Kamoliddinova, Surayyo Ergasheva, Umarxon Jakbarov, Bibisora Inoyatova, Kamronbek Abdurahmonov kabi o'quvchilar o'zlarining a'lo o'qishi, intiluvchanligi va jamoat ishlarida faolligi bilan barcha tengdoshlariga o'mak bo'lib kelmoqda. Qolaversa, Barno Hojiyeva, Dilfuza Ahmadaliyeva, Gulsora O'rinboeva, Malika Abdurahmonova, Muh-taram Yo'ldosheva, Xolidaxon Mahmudova, Gulchehra Xolmatova, Mohigul va Munisaxon Bulturova, Shahboz Rahmonov kabi o'qituvchilar ta'lim samaradorligini oshirishda o'zining ilg'or ish tajribalarini namoyon etishyapti.

yetuk avloddir.

Bizga ma'lumki, avvalo, har bir otana, murabbiy, ustoz bola timsolida yetuk shaxsni ko'radi. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni k o m i l i n s o n - l a r e t i b

**Dadam Orifxon Bodirxonov uzoq yillar viloyatning Baliqchi tumanidagi 44-umumta'lim maktabida o'quvchilarga matematika fanidan saboq berish bilan birga, shu dargohga rahbarlik ham qilganlar. Yoshligimda ular bilan birga masalalar, misollar yechishga qiziqardim. Maktabni a'lo baholarga bitirgach, matematika faniga bo'lgan qiziqishim meni Andijon davlat universiteti (avvalgi Pedagogika instituti) tomon yetakladi.**



voyaga yetkazishni ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi deb qabul qilganmiz.

## MUSTAQILLIGIMIZNING 25 YILLIGIGA ATAB MAKTABIMIZDA OLMA BOG'I BARPO ETDIK

**Gulbahor ABDUMAJIDOVA, Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 16-umumta'lim maktabi direktori:**

Maktabimizda hozirgi kunda 618 nafar o'quvchi tahsil oladi. Bu yil ta'lim dargohimizning 1-sinfiga 93 nafar o'g'il-qiz qabul qilinib, ularga Prezident sovg'alari topshirildi.

Murshidxon Mahsumov, Muhabbat Abdumajidova, Gulchehra Isomiddinova, Muharram Omonova, Komila Azizova, Gulchehra Qoraboyeva, Nafisa Qambarova, Abdurahim Qoraboyev kabi tajribali va yosh ustozlar darslarni yangi texnologiyalar asosida o'tishmoqda. Ayni paytda maktabimizda turli fan va sport to'garaklari faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, ushu sport to'garagida shug'ullandigan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Mustaqilligimizning 25 yillik bayramiga atab, maktabimizda ushu to'garak a'zolari ishtirokida sport bayramini o'tkazdik. Shuningdek,

Istiqlolga atab mo'jazgina olma bog'i barpo etildi.

Ta'lim maskanimizning 4–6-sinf o'quvchilari Muftohiddin Abdumalikov, Izzatilla Mahkamov, Shohruhbek Odilov, Sa'dullo Karimov ushu bo'yicha viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan birinchiliklarda muntazam ravishda qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritib kelayotir. Bu yutuqlarda

albatta, to'garak rahbari Nor-dirbek Qosimovning hissasi katta. Shuningdek, Gulchehra Badalova rahbarlik qilayotgan «Yosh rassomlar» to'garagi a'zolaridan Muxlisa Dada-jonova, Mubina Ubaydullayeva, Madina Erkinova, Odilbek Abduqodirovlar tasviriy san'at bo'yicha tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashib kelyapti.

Bugun iste'dodli o'g'il-qizlarimizga bilim cho'qqilarini zabt etishlari uchun qanot bo'layotgan fidoyi ustozlar talaygina. Ular safida Gulnora Bahodirova va Gulbahor Abdumajidovalarning ham borligidan quvondik.


**O'z muxbirlarimiz**





**Maktabimizda yoshlarni ma'nan barkamol, ona Vatanimiz tarixini mukammal o'rgangan, bilimdon farzandlar qilib tarbiyalash, ularni o'zbek davlatchilik asoslarini anglab yetishishlariga ko'maklashish maqsadida tuman O'lkashunoslik muzeyiga ekskursiya tashkil etildi.**

## TAASSUROT BIR OLAM



Sayyohatda maktabning 14 nafar faol o'quvchi-yoshlari, tarix fani o'qituvchisi U. Berdiyeva, «Kamolot» YOIH boshlang'ich tashkiloti yetakchisi M. Sharopovalar ishtirok etishdi. Ekskursiya davomida o'quvchilarga muzeyning qurilish tarixi, o'zbek xalqining milliy kiyimlari, tumanimiz ijodkorlari, Buyuk ipak yo'li tarixi, qishloq hududlarida namunaviy loyihalar aso-

sida qurilayotgan zamonaviy uy-joylar to'g'risida tushunchalar berildi.

Yakunda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javob olishdi.

**Umida BERDIYEVA,**  
Navo'yi viloyati, Qiziltepa tumanidagi 3-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

# VATANNI ANGLASH BAXTI

**Tong otdi. Quyoshning zarrin nurlari tepaliklar ortidan jilvalanib, ko'zni qamashtirmoqda. Istiqloqlarning har bir tonggi o'zgacha. U har bir yurtdoshimizni yashashga undaydi.**

**Bu yil mustaqillikka erishganimizga 25 yil to'ldi. Bayram shukuhidillarda jo'sh urmoqda. Hatto, gul-u rayhonlar ham o'zgacha ifor taratib, bolari-yu umri bir kunligini bilsa-da, zavq olib uchayotgan havir qanotli kapalaklarni ham o'ziga mahliyo etmoqda.**

Goh barglar qanotidan mit-ti shudring mo'ralaydi. Samoda qushlar raqsga tushadi. Yurt bog'larida ish qizg'in, dalalarda esa hayot qaynaydi. Onalar tandirdan shirmoy nonlarni mehr bilan uzib, dasturxonaga tortiq qilishadi.

Shu kezda men buvijonimning oldiga chopib borib, ularni savolga tutaman.

– Buvijon, Vatandegani nima?

Mening bu savolim-ga buvijonim o'ylab o'tirmay javob beradi.

– Vatani – bu sening kindik qoning to'kilgan maskan, bosgan har qarich tuprog'ing, qizalog'im.

Buvijonimning bu so'zlaridan o'zim

uchun juda katta xulosa chiqardim, Vatani nimaligini anglab yetdim.

Yurt mehridan ilhomlanib, yuragimda she'r paydo bo'ldi:

**Husnda tengi yo'q  
ona makonim,  
Quchog'ingda o'tar  
mening har onim.  
Bag'ri quyosh kabi  
qaynoq, huzurli,  
Go'zallikda tengsiz,  
O'zbekistonim!**

**Gulasal  
G'AYRATJONOVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi ko'zi ojiz va kar o'quvchilarga ixtisoslashtirilgan maxsus maktab o'quvchisi



## TO'GARAK A'ZOLARI TADBIRDA FAOL

**Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi 18-umumta'lim maktabida o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Maktabdagi fan va sport to'garaklari hamisha o'quvchilar bilan gavjum.**



– Ingliz tili fani o'qituvchisi Ulug'bek Rahmonov biz o'quvchilarga dars o'tishning yangi innovatsion texnologiyalari hamda o'yinli metodlaridan keng foydalan-gan holda mashg'ulotlarni olib bormoqda, – deydi 7–8-sinf o'quvchilari Jonibek Shomurodov, Umida Haqqulova, Mux-lisa Ochilova, Behruz Samadov.

Jumladan, ingliz tili fanidan tashkil etilgan to'garakda hozirda 32 nafar o'quvchi ta'lim olib, ular tuman va viloyat miqyosidagi tanlovlarda o'zlarining bilimlarini namoyish etib kelmoqdalar.

– Maktab rahbari Oybek Karimov boshchiligidan ko'plab tadbirlar o'tkazib turamiz. Ularda to'garak a'zolari faol ishtirok etadi, – deydi 8-sinf o'quvchisi Gulzebo Qodirova.

Zarnigor MUSAYEVA

**Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi, Respublika «Sen yolg'iz emassan» bolalar jamoatchilik jamg'armasi hamkorligida yurtimizdagi «Mehribonlik» uylari tarbiyalanuvchilari o'rtasida «Kamalak jilosi» respublika rasmlar ko'rik-tanlovi o'tkazildi.**

## KAMALAK JILOSI

Unda Qo'qon shahar 12-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, shahardagi 18-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchilari – Alisher Hasanov hamda Kumushxon Razzoqova ham faol qatnashdi. Ko'rik-tanlovning amaliy san'at yo'nalishida ishtirok etgan o'quvchilarning ijodiy ishlari «Mustaqillik to'ying muborak, O'zbekistonim!» deb nomlandi. Tashkilotchilar tomonidan ularning asarlari rag'batlantiruvchi diplom bilan taqdirlandi.



– Tikuvchilik to'garagi rahbari M u q a d d a m o n A h m e d o v

biga ushbu hunar-ni sir-sinoatlarini qunt bilan o'rgatmoqdalar. Buning uchun ulardan minnatdorman, – deydi Kumushxon.

Biz ular orqali barcha ishtirokchilarga, bo'sh kel-mang, aziz o'quvchilar, hamisha izlanishda, hunar o'rganishda davom eting, deymiz.

Nozima JAVHAROVA

# BOLALIKNING NURLI OLAMI

*Bolalik, sening nurli olamingni yillar o'tgani sari ko'proq sog'inaman. Go'yo mening hayot bilan bog'liq bo'lgan unutilmas damlarim sening quchog'ingda qolib ketgandek tuyuladi. Besh yashar chog'im, otam akanni maktabga olib borganida xarxasha qilib, men ham maktabga boraman, deya ularning ortidan tosh ko'chada yig'lab yugurganlarimni eslayman. Sinfxonalardagi qop-qora partalardan anqib turgan bo'yoq isi hanuzgacha dimog'imizni qitiqlaydi. Tutqich bermas kunlarimiz qanchalar tez o'tib ketganini birov bilib, birov bilmasdan qoldi. Ustozlarning mehr to'la nigohi doimo bizga qaratilgandi. O'shanda biz darslarimizni to'liq o'tishning uddasidan chiqmaganmiz. Paxta bilan bog'liq bo'lgan xabar, biz bolakaylarni dalalar tomon yetaklardi. Yaganadan boshlab, chopig'u teringacha o'quvchilar zimmasiga og'ir vazifa yuklatilgandi.*

Boshimizni ko'tarishga kuchimiz yetmasdi. Sinfdoshlarimiz bilan ro'yobga chiqmagan orzular og'ushida g'arq bo'lib yurardik. Onalarimiz beshigini ko'tarib dalaning boshiga borganiga guvohmiz. Birov sog'lom ona va bola haqida qayg'urmasdi. Hammaning fikr-u zikri paxtada edi. Samolyotlar xohlagan chog'ida boshimizdan zaharli dorilarni yomg'irlatib separd. Mehnatkash xalqimiz shunday og'ir damlarda ham, o'zlarining jasoratlarini ko'rsatishardi. Momolarimizning «mehnatdan hech kim o'lmagan» degan mahzun shiorlari bo'lardi. Eh, u paytlarning «ertak»larini so'zlagan sari yuragim achishadi. Qora kunlar qalbmida qoldirgan dardlarni so'zlab ado qilolmayman...



Shukrki, Istiqlol quyoshi boshimizda charaqlab chiqqan kun keldi. Inson manfaatlarini himoya qilish to'g'risida bir qancha qonunlar ishlab chiqildi. Biz o'z haq-huquqlarimizni biladigan bo'ldik. Yurtboshimizning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart», degan so'zlaridan ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Mustaqilligimizning yi-

girma besh yillik to'yida istiqloq nihollarining sarxil mevalari bo'lgan farzandlarimiz jahon maydonlarida O'zbekiston bayrog'ini ko'kka ko'tarib, o'zlarining nimalarga qodirligini dunyo ahliga yana bir bor namoyish etdi.

Kuni kecha tahririyatimizga ko'zlari chaqnaq, o'zini Humoyun Bekmurodov deya tanishtirgan olti yoshli bolakay kirib keldi va shaxmat bo'yicha dunyodagi eng yosh sport ustaligiga nomzod sportchi bo'lganini faxr bilan gapirdi. Humo qushi boshida sayr etib yurgan Humoyun o'z mahorati bilan har birimizni lol qoldirdi. Ha, chindan ham bugungi yoshlarimizning sehirli olami barchamizni birdek o'ziga mahliyo etmoqda.

AXTAMQULI

**Bugun sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan a'lochi o'quvchilarimizdan biri Qunduzoy YUSUPOVA bu yil Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mang'it shahridagi 16-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabini a'lo baholarga tamomladi. Iqtidorli qizga 14 yoshidayoq, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi litseyning xorijiy tillar yo'nalishi bo'yicha 1-bosqich o'quvchisi bo'lish baxti nasib etdi.**

## JAYHUN MAVJLARI

«Bo'lar bola boshidan» deganlaridek, Qunduzoy 3-4 yoshli paytida onasiga «Oyi, sizning ko'zingizda men, mening ko'zimda siz borsiz» degan ekan.

Adabiyot faniga erta mehr qo'ygan iqtidorli tengdoshingiz 11 yoshidan she'rlar yoza boshladi. Bunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Hulkar Qurbonboyevaning xizmatlari katta bo'ldi.

2014-yilda u «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida 1-o'rinni egallagandi. O'tgan o'quv yilida esa ushbu tanlovning Respublika bosqichida 2-o'rin sohibasiga aylandi. Shu yil bahorda ona tili va adabiyot fani bo'yicha o'tkazilgan Fan olimpiadasida ham 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Shuningdek, Qunduzoy «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining she'riyat yo'nalishida muvaffaqiyatli ishtirok etib, diplom bilan taqdirlandi.

— «Barkamol avlod» bolalar markazining «Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zosiman, — deydi u. — Erishgan muvaffaqiyatlarim uchun ustozlarim Zulfiya Olloyorova, Robiya Yo'ldoshevadan cheksiz minnatdorman.

Hali yosh bo'lishiga qaramay, uning «Dadaming tilagi — baxtim chirog'i», «Sog'inaman,

sog'inchim bisyor» deb nomlangan ikkita she'riy kitobi chop etildi.

Qolaversa, Qunduzoy chet tillarni o'rganish-



ga ham qiziqadi. Bo'sh vaqtlarida esa tikish, to'qish bilan shug'ullanadi, pishiriqlar tayyorlaydi.

— Ukam Xursandbek men tahsil olgan maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi, — deydi opa faxr bilan. — U sportning dzyudo turi bilan jiddiy shug'ullanadi. Bu yil ukam viloyatda bo'lib o'tgan musobaqada 2-o'rin sohibi bo'ldi.

Biz kelgusida opa-ukalarning jahon miqyosidagi musobaqalarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etishini niyat qildik.

Dilrom HOTAMOVA

## JONIBEK - VILOYAT HOKIMI STIPENDIYASI SOHIBI

**Maktab - ta'lim-tarbiya o'chog'i. Ushbu muqaddas dargohdan unib chiqadigan yosh nihollar Vatanimizning porloq kelajagidir.**

**G'ijduvon tumanidagi 8-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internati ham respublikamizdagi ko'zga ko'ringan ta'lim maskanlaridan biri sanaladi. Bu yerda ko'plab bilimga chanqoq o'quvchilar jonkuyar ustozlardan saboq olishadi.**

Ana shunday iqtidor egalaridan biri 9-«B» sinf o'quvchisi Jonibek Tolibovdir. U har bir fanni sevadigan, intiluvchan, jamoatchi o'quvchilardan hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tiliga juda qiziqadi. U «Ingliz tili bilimdoni» ko'rik-tanlovi hamda «Bilimlar bellashuvi»ning Respublika bosqichlarida munosib ishtirok etib kelmoqda.

Jonibek 2016-yilda «Viloyat hokimi stipendiyasi»ga munosib topildi. Shuningdek, tengdoshingiz «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati boshlang'ich tashkilotining faol a'zosi bo'lib, o'tkaziladigan barcha tadbirlar uning ishtirokisiz o'tmaydi.

U hunarmandlar oilasidan bo'lib, bo'sh vaqtlarida ota-onasiga uy-ro'zg'or yumushlarida yaqindan yordam beradi. Hozirda elakchilik hunari sir-asrorlarini puxta o'zlashtirmoqda.

Ham bilim, ham kasb-hunar sohasida yutuqlarga erishayotgan, orzulari osmon qadar Jonibekka kelgusi ishlarida omad tilaymiz!

N. QIDIRALIYEV

Bilimlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda so'zga chiqqanlar o'quvchilarni ushbu sovg'a bilan qutlab, ularga omad va zafarlar tiladi.

- Ta'lim maskanimizda «Ona tilim - jon-u dilim», «Yosh matematiklar», «Sport malikasi» kabi 20 dan ortiq fan, musiqa va sport to'garaklari faoliyat yuritmoqda. Mashg'ulotlarga 250 dan ziyod yoshlar muntazam qatnashib ke-layotir. Maqsadimiz zukko, bilimdon yoshlarni tarbiyalashdan iborat, - deydi maktab direktori Zubayra Sa-parbekova.

Shuningdek, maktab sport zalini yangidan ta'mirdan chiqarilishi,

# QADRDON DARGOH

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 25-umumta'lim maktabi o'quvchilari yangi o'quv yilini qayta ta'mirdan chiqarilgan binoda boshlashdi.

o'quvchilar o'rtasida sog'lom tur-mush tarzini targ'ib etib, ularni jis-moniy tarbiya va sport mashg'ulot-lariga keng jalb etmoqda.

- Men baxtli o'quvchilardan biriman. Sababi, ozod yurt bag'ri-da emin-erkin ulg'aymoqdaman, - deydi 2-«B» sinf o'quvchisi Durdo-na Hasanova.

- Biz keng, yorug' barcha shart-sharoitlarga ega sinfxonalarda ta'lim o'lyapmiz. Kelajakda ustozim

Shohista opa Qurbono- vaning ishonchini oqlab, Vatan rav-naqiga o'zinning munosib hissamni qo'shaman, - dey-di 2-«B» sinfning yana bir a'lochi o'quvchisi Abdu-hamid Baxtiyorov. O'quvchilarning beg'ubor orzulari

albatta, ijobat bo'ladi. Chunki ular mehribon va talabchan uztozlardan saboq olmoqdalar.

Shavkat KAZAKBAYEV



## LESSON 105

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### LET'S DO TOGETHER (Keling, birga bajaramiz)

### CAN YOU FIND HIDING ANIMALS? (Berkitilgan hayvon nomlarini topa olasizmi?)

Find the animals hiding in the following sentences.

EXAMPLE: Close the door **at** once!

- 1) That will **be** a real help.
- 2) She came late every day.
- 3) He came to America today.
- 4) Eric owes me ten cents.
- 5) We made errors in each one.
- 6) Do good workers succeed?
- 7) If I shout, he'll hear me.
- 8) If Roger comes, we'll begin.
- 9) We will go at two o'clock.
- 10) Is he the sixth or seventh?

Muhammadsodiq DONAYEV,

the student of Uzbek State World Languages University

### A WISE COUNTING

(Short story)

A King was in the habit of putting riddles and puzzles to his courtiers. He often asked questions which were strange and witty. It took much wisdom to answer these questions.

Once he asked a very strange question. The courtiers were dumb fold-ed by his question.



The King glanced at his courtiers. As he looked, one by one the heads began to hang low in search of an answer. It was at this moment that minister entered the courtyard. Minister who knew the nature of the king quickly grasped the situation and asked, «May I know the question so that I can try for an answer».

The King said, - «How many crows are there in this city?»

Without even a moment's thought, minister replied: «There are fifty thousand five hundred and eighty nine crows, my king».

«How can you be so sure?» asked King.

Minister said, - «Make you men count, my lord. If you find more crows it means some

have come to visit their relatives here. If you find less number of crows it means some have gone to visit their relatives elsewhere».

The King was pleased very much by his minister's wit.

### RIDDLES (Topishmoqlar)


There was a green house. Inside the green house there was a white house. Inside the white house there was a red house. Inside the red house there were lots of babies. What is it?



What kind of room has no doors or windows?



Ibrohim FAYZIRAHMONOV, the pupil of republic radio and television college



1. Fill the blanks with the best adverb. Slowly, usefully, dangerously, magnifi-cently, certainly, surprisingly.

- a) Will you spend your vacation \_\_\_\_\_?
- b) Our class performed \_\_\_\_\_ well in the concert.
- c) The hero jumped \_\_\_\_\_ to save a drowning child.
- d) The turtle \_\_\_\_\_ moved to the lake.
- e) He should \_\_\_\_\_ try to do his best in exams.

2. Fill in the blanks with one of these personal pronouns. me/she/we/us/they.

- a) \_\_\_\_\_ taught \_\_\_\_\_ to balance on my skates.
- b) \_\_\_\_\_ were told that all of \_\_\_\_\_ should join in the drama.

3. Circle all the words that should have a capital letter. Many, nokia, carpenter, jenny, wonderful, who, mcdonalds, every winter, multiply, drug, join, useful, duck, four, lion, all, summer, different, so, often, never.

4. Join the sentences with the following words, conjunctions. After, which, so, although, as, because.

- a) We played inside. \_\_\_\_\_ It was very dusty.
- b) The apple fell. \_\_\_\_\_ It was controlled by the force of gravity.
- c) It was the weekend. \_\_\_\_\_ We all enjoyed the two days.
- d) I wish to open a store. \_\_\_\_\_ I finish my schooling next year.

5. Circle the correct word.

- a) There / Their / Thier / There are many boys in the park.
- b) I have too / to / two / tow many jobs to do.
- c) Where / Wear / Wheres /Were does this shirt belong?
- d) I want some money from my father. I will loan / borrow / borrowed / loaned money.
- e) There are too much / manies / many / muchs people in the car.
- f) The children drink / drank / drunk / drunk Pepsi yesterday.
- g) The dog swim / swamed / swam / swum across the pond.
- h) This moon is the bigger / big / big-gest / bigs I have seen.
- i) How many mices / meese / mice / mouse are there in the box?
- j) These / This /Thier books are nice but yours / your / your's are more interesting.
- k) Whose / Whom / Who is responsible for this mess? Obviously it's / it / its John!



Painter: YOQUBBEK

Prepared by Dinora SHAKIROVA

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

**Xudoyberdi TO'XTABOYEV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi**

– Yaypanda dorixona bor, biladi? – so'rayapti o'ris xola.

- Biladi, – beholgina deyapti oyijonim.
- Taqachidan pul qolgan?
- Qolmagan?
- O'zida pul bormi?
- Pul... pul yo'q.
- Qo'shnida pul bor?
- Qo'shnida pul yo'q.

– Unda men Yaypanga ketdim, dori olib keladi.

Ana shu qisqa-qisqa gaplardan keyin o'ris xola Allohndan kelgan shifo farishtasidek bo'lib ko'rindi-yu, shu zahotiyoc, velosipediga minib, g'oyib bo'ldi. Qiziq, buvijonim ertak aytganda Allohndan keladigan shifo farishtalari ko'zga ko'rinmasdan bemorning dardini sezdirmay olib ketadi, derdilar. Demak, hozir ham farishta kelibdi-da. Oyijonimning yuzlaridagi quvonchni o'shalar olib keldi shekilli, bizga tabasum bilan qarayapti. Shu payt hovliqancha Anya do'xtir xolamiz kelganini sezmay qolibmiz.

– Yaypanga men bordi. Dorini men oldi. Soraxon qarz bo'ldi. Sigiri tug'sa buzoq sotadi, pul beradi.

Ana shunday yoqimli gaplarni aytib-aytib, do'xtir xola yana oyijonimni emlay boshladi. Keyin negadir bizni o'pib ham qo'ydi.

Uyimizdan chiqib keta turib, yana quyidagicha gaplarni aytib ketdi.

– Sora, ori, semirsin. Go'sht yesin. Yog' yesin. Uzum yesin. Nok yesin.

Ha, uyimizga Allohning shifobaxsh farishtalari uchib kelgani aniq. Endi farishtalar velosiped minar ekanmi? Demak, ular oilalarga tinchlik, osoyishtalik, o'g'illari, qizlari yig'lama-sin deb yupanch olib kelarkan-da. O'sha kechasi opa-singillarim bilan birga achomlashib yotdik.



**TAGOB QISHLOQ  
ERTAKLARI**

SHAHNOZA chizgan rasmlar

Oyijonim, Xudo xohlama tuzaladi, oyoqqa turib ketadi. Uyga ham o'zi qaraydi, ovqatni ham o'zi pishiradi. Tez-tez ingalab yig'laydigan Donoxon singlimni ham o'zi emizib, o'zi yupatadi. Uyimizga o'ris xola farishta bo'lib keldi. Aloh bergan shifoni olib keldi. «Quvvati yo'q, go'sht yesin, palov yesin, anor yesin», deb ketdi. Lekin ularni olishga bizda pul yo'q-ku. Bobojonimda uyining shiftiga osib qo'yilgan, qurshab qolgan tosh behidan boshqa hech narsa yo'q-ku. Ey Xudoyim, endi nima qilamiz? Kuchi ketib, nimjon bo'lib, o'lib qolsa-ya. Unda Dononi kim emizadi? O'gay akam qiyinchilik bilan keltirgan tuzi ham yaxshi pul bo'lmayapti. Nega desangiz, eshakchilar ham ko'payib, ko'p tuz olib kelishayotgan ekan. Endi nima qildik? Endi pulni qayerdan topamiz, kimdan so'raymiz? To'satdan, ko'nglimga ajoyib bir fikr keldi-yu, quvonchdan sakrab o'rnimdan turib ketdim. Ha, ha, shunday qilaman, sakrab-sakrab bobojonimnikiga borayapman...

Erka kattamnikida yurganimda nos sotardik. Uni tayyorlash uchun erta bahordan nosning niholini ekardik. Nihol kuzga borib, yelpig'ichdek-yelpig'ichdek barglar berardi. Ularni ehtiyotlik bilan uzib, arqonlarga osib, chala quritardik. Qattiq quritsak, kelichada tuyayotganimizda changga aylanib, kukun bo'lib qolardi. Shuning uchun chala quritardik. Keyin undan nos yasab, rosa pullardik. Yashirmay qo'ya qolay, ko'proq men sotardim. Bir tangalik, yarim tangalik, besh mirilik pullar ham kelib turardi... Erka kattamning beli og'rib, yotib qolgandan beri nosfurushlikni

yig'ishtirib qo'yganmiz.

Bordi-yu, o'sha ishni o'zim qilsam-chi, deya bobomnikiga qarab yugurdim. Xayriyat, uyda ekanlar. Bilasiz-ku, beli og'rigandan buyon hech qayoqqa chiqmaydi. Maqsadimni aytgandim, «qani endi o'g'lim bu ishni yana boshlab yuborsang» degan maqtozni eshitdim. Enajonim puf-puflab non yopayotgan ekanlar. Yugurib borib, uning ham orqasidan quchoqlab, hamisha qatq hidi kelib turadigan sochlaridan o'pdim. Omborxonaga yugurdim. Shiftiga ip tortib tamaki barglarni qanday yoyib ketgan bo'lsam, shundayligicha turibdi. «Xudoyberdi tezroq bizni pulla, onajoningga go'sht olib berasan», deyshayotgana o'xshaydi. Qopni tamaki bargiga to'ldirib, ixchamgina cho'yan kelichamiz bor edi, uniyam qo'ttiqqa urib, uyga qarab otildim.

Qiziq, juda qiziq bo'lyapti. Ham Abduxalil, ham o'gay akam, esi anchagina kirib qolgan Oyshaxon singlim bu ishimga qarshilik ko'rsata boshlashdi. «Boyvachchaning o'g'li nos sotayapti, usta Abduqodir unga ovqat bermay qo'yibdi, degan gaplar ko'payadi. Oilamizning obro'yi to'kiladi», deb qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Xayriyat, mehribon oyijonim yonimni oldi. Erka ellikboshining obro'yi usta Abduqodirning obro'yidan kam emas edi. Nos sotar edi. Obro'yiga obro' kelardi, hatto ellikboshining nosi zo'r, deb maqtashardi. Ana shunga o'xshash gaplarni aytib, oyijonim men tomonga o'tib oldi. Shunday gaplardan keyin Abduxalil ham, o'gay akam ham, bilganini qilsin, deb ko'chaga chiqib ketishdi.

Kechasi uxlamadim. Avvalo, nosning ta'siri kuchli bo'lsin deb, kul tayyorladim. So'ng barglarni ehtiyotlab tugib, o'zim bilgan nosning talqonini tayyorladim. Lekin hadeganda biron noskash kelib nos so'ramadi.

– Ey, Xudo o'zing yordam ber, – deya bilgan duolarimni o'qiyman. Yo'q, tushgacha bironta noskashdan darak bo'lmadi. Abduxalil bilan o'gay akamning lablarini burib, ustimdan kulishlari-chil faqat bir opa bolalarining kiyim-boshini bit bosib ketgan ekan, «kiyimning kiyimlariga nos solsangiz, bitlar garang bo'lib qoladi», degan gapni qo'shni qishloqdan eshitdi. Darhol yon qo'shnisiga aytgan ekan ikkovlari nos olgani kelibdi. Voy, xursand bo'lganim! Har biriga besh ming so'mlikdan nos berdim. Besh ming so'mlik deganimga hayron bo'lmang. Urush boshlangandan buyon pulning qadr-qiyamati ketib qolgan.

Shu tobda xayolimga yana bir fikr keldi.


Qishlog'imizda qirqtacha amaki, bobo va buvilar borligini bilaman. Bobom nos qilganida, ulamikiga o'zim olib borardim. Maqtovarlarni eshitardim. Quruq qaytmasdim, qo'limga mayiz, turshak, shaftoli qoqimi berishardi. O'sha noskash amaki buvilar tiriku o'zim nosni ulamikiga olib borsam-chi.

– Ha, o'zim olib boraman! Uyima-uy yuraman, – deya hayqirib o'rnimdan turib ketdim.

To'g'ri, avvaliga bironing eshigini taqillatgani uyaldim. Eshik ochiq bo'lsa, kiraymi, kirmaymi, deb ikkilanib qoldim. Ba'zilar eshigini ochmasa, yig'lab qaytgan kunlarim ham bo'ldi. Lekin nosfurushligim asta-sekin yo'lga tushib oldi. Bir kun yaxshigina savdo bo'lgan edi. Qassobdan bir yo'la bir qadoq go'sht sotib oldim.

– Azamatim, mehribonim, – deya oyijonim meni quchoqlab oldi. Qaltirab turgan qo'llari bilan yuzlarimni silayapti? – mana sani peshona tering bilan topganingni ko'rdim, iloyo peshona teri bilan yashayman deb niyat qilgin, deya o'sha kuni uyimizda yana bir bayram bo'ldi.

(Davomi bor)



**MENI CHORLAR  
AZIM BOBOTOG'**

Yurtim mening ko'hna Surxon, Musaffodir uning osmoni. Bolaligim kechdi shu yerda, Otashnafas mehrning koni.

Ko'zim ochib tanidim seni, Dunyo ichra mitti osmonim. Daryolari o'ynoqi, zilol, Surxondaryo – ota makonim.

Cho'qqilari ko'kni quchguday, Go'zallikda misli Eram bog'. O'tmishlardan ertaklar aytib, Meni chorlar azim Bobotog'.

**Nafisa NURMUHAMMEDOVA**  
Surxondaryo viloyatidagi  
3-Denov akademik litseyi o'quvchisi

O'rmonda qorni ochiqib yurgan yo'lbars tulkini ushlab olibdi. Uning niyati yomonligini sezgan tulki boshini yuqori ko'tarib:

– Meni baribir yeya olmaysiz! Chunki men to'g'ridagi to'qayning xo'jayiniman, – debdi. Yo'lbars bu gapga ishonmabdi. Shunda tulki biroz yumshoqroq ohangda:

– Yo'lbars og'a, ishonmasangiz men bilan birga to'qayga yuring. U yerdagi hayvonlar mendan qanday qo'rqishlarini o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz, – debdi.



**AYYOR TULKU**  
(Ertak)

Ko'rsam ko'rayinchi, – deb yo'lbars u bilan birga yo'lga tushibdi.

Yo'lbarsni ko'rgan hayvonlar qo'rqqanidan, har tomonga qocha boshlabdilar. Atrof jim-jit, hatto qushlar ham qolmabdi.

– Mana, og'a, mendan qo'rqmaydigan birorta ham jonzot yo'qligiga ishondingizmi, – debdi tulki yo'lbarsga qarab.

– Chindan ham hayvonlarning hammasi sendan hayiqishar ekan. Seni yeyish mumkin emasligiga ishonch hosil qildim, – debdi yo'lbars qo'rqib.

– Unday bo'lsa, joning omonligida qochib qol, – debdi ayyor tulki.

Yo'lbars tezda juftakni rostlab qolibdi.

**Qirg'iz tilidan Buruloy DUSHANOVA**  
tarjimasi



# PARALIMPIYACHILARIMIZ BARCHANI HAYRATGA SOLDI



Rio 2016  
PARALYMPIC GAMES

**Bundan bir necha yil avval mamlakatimizda O'zbekiston Milliy Paralimpiya assotsiatsiyasi tashkil etilgan edi. Maqsad yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, nufuzli xalqaro musobaqalarda ona Vatanimiz sharafini munosib himoya qiladigan yetuk sportchilarni tarbiyalashdan iboratdir. Barcha qilingan ezgu sa'y-harakatlar sabab, qisqa vaqt ichida paralimpiyachilarimiz qit'a va jahon chempionatlarida olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritishdi. Erishgan yutuqlarimiz esa xalqaro miqyosda munosib e'tirof etilib, 2014-yilda mazkur assotsiatsiya qit'ada «Yilning eng yaxshi sport tashkiloti» deya tan olindi.**

Quvonarlisi, 7-18-sentyabr kunlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XV Paralimpiya o'yinlarida ham atletlarimiz o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Dunyoning 200ga yaqin davlatidan kelgan sportchilar ishtirok etgan ushbu nufuzli sport bayramida 32 nafar atletimiz sportning 5 ta turi bo'yicha o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazdi.

Musobaqalarning birinchi kunidayoq, sportchilarimiz 8 ta turli darajadagi medallar egasiga aylanishdi. Jumladan, dzyudo bahslarida 60 kggacha bo'lgan polvonlar bahsida yurtimiz sharafini himoya qilgan Sherzod Namozov O'zbekiston sporti tarixida ilk bor Paralimpiya o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'ldi. E'tiborlisi, vazni 66 kilogrammacha bo'lgan dzyudochilar bahsida ham oltin medal yurtdoshimizga nasib etdi. O'tkirbek Nig'matov o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, yakunda shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi.

Dzyudo bo'yicha musobaqalarda gilamga chiqqan yana bir sportchimiz Odil Tulend-

iboyev +100 kg vazn toifasida barcha raqiblarini ippon bahosi bilan mag'lub etib, Paralimpiya o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, yengil atletika bellashuvlarida ishtirok etgan Husniddin Norbekov ham delegatsiyamiz hisobiga navbatdagi oltin medalni qo'shib qo'ydi. Quvonarlisi, u nafaqat Paralimpiya o'yinlari chempioni bo'ldi, balki disk ulotqirish bo'yicha jahon rekordini ham yangiladi. Nayza ulotqirish bahslarida o'z omadini sinovdan o'tkazgan yana bir hamyurtimiz Aleksandr Svechnikov ham Paralimpiya o'yinlari rekordi bilan birga oltin medalni qo'lga kiritdi. U bellashuvlarda 65 metr-u 69 santimetr natijani qayd etdi.

Suzish bahslarida Vatanimiz sharafini himoya qilgan matonatli sportchilarimiz ham yurtimiz g'aznasiga bir qator medallarni tortiq etishdi. Jumladan, Firdavsbek Musabekov 100 metrga brass usuli-

da suzish bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritdi. Ta'kidlash joizki, u ukrainalik sportchi bilan bir xil natija qayd etdi. Shu sababli musobaqa dasturiga ko'ra, har ikkala sportchiga ham oltin medallar topshirildi. Yana bir suzuvchimiz Fotima Amilova esa 100 metrga brass usulida suzish bo'yicha barcha raqibalaridan ustun kelib, Paralimpiya o'yinlari g'olibi degan sharaffi nomga sazovor bo'ldi.

E'tiborlisi, ushbu atletimiz bunga qadar 1 ta kumush va 1 ta bronza medaliga ega bo'lgan edi.

15 sentyabrga qadar, sportchilarimizdan 6 nafari Paralimpiya o'yinlarining kumush medalini, 17 nafari esa bronza medalini egasiga aylanishdi. Bu orqali, O'zbekiston terma jamoasi jami 30 ta medal bilan umumjamo'a hisobida 13-o'rinni egallab turibdi. Bu natija Osiyo va MDH mamlakatlari o'rtasida ikkinchi, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi ko'rsatkichdir.

**Vakillarimizga galdagi belashuvlarda omad va zafarlar tilaymiz.**

Sa'dullo TURSINOV



## Muhammadali QO'SHMOQOV FUTBOLCHI

Raqib himoyasiga  
Chap berib, aldab o'tar,  
Hatto o'z soyasiga  
Yetkazmay, uchib ketar.

Qiyqirar tomoshabin:  
«Xolmuhammadbobur – bu».  
Kimdir ma'qullar gapin:  
«Hech tutib bo'lmas nur – bu».

Zavqi toshgan futbolchi,  
Joni sig'mas ichiga,  
Qirag'ay mergan qochi,  
Futbol – sayqal kuchiga.

Unga xush shoir qadri,  
Goh fermer ishin ko'zlar.  
Sirdoshidir gul atri,  
Osmon to'la yulduzlar.

Atrofi da do'stlar jam  
Mehri iyib so'ylagay.  
Lekin u o'zidan ham,  
Ularni ko'p o'ylagay.

Tortar uni rom qilib,  
Ohanrabo har bir on.  
To'pday uchib, evrilib,  
Tortar o'yinga jahon.



Farg'onada  
kuni kecha  
«Farg'ona Open -  
2016» viloyat shaxmat  
turniri bo'lib o'tdi.



Nihoyatda keskin, qiziqarli o'tgan nufuzli turnirda Marg'ilon shahri sharafini himoya qilgan 10-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Robiya Sardorova katta muvaffaqiyatga erishdi. U 14 yoshgacha bo'lgan qizlar bahsida 6,5 ochko to'plab, turnir g'olibi bo'ldi. Ikkinchi o'rin buvaydalik o'quvchi M. Abdumannonova va uchinchi o'rin Farg'ona shahri vakili M. Ibrohimovalarga nasib etdi.

Musobaqa g'oliblari diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Muhammadjon MAHMUDOV

## QUVALIK CEMPIONLAR

**Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida bugungi kunda 19 ta sport turi bo'yicha to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Ular orasidan akrobatika va trampolin mashg'ulotlarini alohida tilga olish mumkin.**

Ayni paytda ushbu maskanda 840 nafar o'g'il-qiz sport bilan muntazam shug'ullanmoqda. Ular orasidan D.Karimov, M.Anvarova va S.Usmonovlar trampolin bo'yicha Osiyo hamda jahon chempionati musobaqalarida munosib ishtirok etib, faxrii o'rinlarni qo'lga kiritib kelishayotir. Bu yuksak g'alabalarda, albatta, Ahror Qodirov, Ozoda Po'latova kabi

ustoz-murabbiylarning xizmati beqiyos.

Shuningdek, sport maktabi tarbiyalanuvchilaridan Kamola Rahmonova va Zulfiya Majonova Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Bu kabi yutuqlar quvaliklik yosh chempionlarni yangi-yangi marralar sari yetaklashi, shubhasiz.

SH. G'ULOMOV

Darslar tugab, Nasiba uyga qaytardi. Ketaturib shundoqqina yo'lining bir chetida tuproqqa qorishib yotgan narsaga ko'zi tushdi. Avvaliga toshmiqan, degan xayolga bordi. U beparvo o'ta olmadi. Qarasa, bir burda non tuproqqa belanib yotardi.



## NONNING UVOG'I HAM NON

(Hikoya)

– Voy, non-ku, – dedi. Nasiba uni qo'liga olib, asta pufladi-da, ko'ziga surtdi. Izidan yetib kelgan maktabdoshlari buni ko'rib, ajablanishdi:

– Biror daydi it yeb ketar, qo'lingni chang qilib nima qilarding? – dedi qizlardan biri. Unga yana boshqasi qo'shildi. Nasiba chidab tura olmadi:

– Nonning uvog'i ham non ekan haqida bilmaysizlarmi? – dedi

u ko'zlarini katta-katta ochib. – Bo'lmasa eshitinglar: «Qadim zamonda bir sayyoh safarga chiqibdi. U tuya minib olgan ekan. Uzoq yo'l yurganidan qorni ochibdi. Xurjunidan bir burda non olib, yo'l-yo'lakay yeb ketaveribdi. Shu payt o'tlar orasiga non ushug'i tushib ketibdi. Yo'lovchi tuyadan tushib, uvoqni rosa qidiribdi, ammo uni topolmadi. Shunda sayyoh ushoq tushgan joy atrofini devor bilan o'rab, keyin yana yo'lida davom etgan ekan». U shu tariqa hikoyasini tugatibdi. Shunda haligi o'ylamay gapirgan dugonasi biroz xijolat chekib, Nasibaga yuzlanibdi:

– Voy, bunday qiziq voqeani senga kim aytib bergan, o'zi? – debdi, pushaymon bo'lib. Buni menga buvimlar so'zlab bergan, – debdi Nasiba non burdasini sumkasiga joylarkan.

Barcha bolalar aytgan so'zidan qattiq afsuslanishibdi va Nasibadan uzr so'rashibdi.

**Ollanazar ULUG'OV,**  
Surxondaryo viloyati, Qum-  
to'rg'on tumanidagi 34-umum-  
ta'lim maktabi o'qituvchisi



## GULLAR MALIKASI

(Ertak)

Har yili sentyabr oyida dunyodagi barcha gullar bazm uyushtirishar ekan.

– Salom azizlarim, bugun dunyodagi eng go'zal va ajoyib gul qay birimiz ekan aniqlanadi. G'olibni gullar saltanatining malikasi deya e'lon qilamiz, eng asosiysi, ular har yili ko'klamni boshlab berish, nafosat fasli kirib kelgani bilan insoniyatni muborakbod etish baxtiga musharraf bo'ladi, – debdi mehr-muhabbat ramzi bo'lgan qizil atirgul. U gapini tugatmasdanqoq, kartoshkagul atirgulti maqtashga tushibdi:

– Bu olamda eng go'zal gul, sizsiz. Dunyoda atirgulti suymaydigan inson yo'q, axir. Go'zallikda sizdan keyin men turaman, to'g'rimi gulxonimlar? – deya qo'shib qo'yibdi.

Shunda kaktus lablarini burib: «To'g'ri, atirgulxonim – dunyoda eng go'zal gul. Buning sababi uning nozikkina tikanlaridadir. Lekin sizni go'zal deyish noo'rin», debdi. Shun-

da xitoy atirgulti shaxt bilan o'rindan turib, go'zallik tikan bilan emas, alvon rang bilan belgilanadi, shunday ekan, oralaringizda eng chiroylisi menman» debdi.

Barcha gullar o'zini bir-bir maqtab chiqishibdi. So'z olmagan faqat boychechak va binafsha qolibdi. Nihoyat, atirgul so'zni boychechakka beribdi. Chetda oppoq ko'yak kiyib o'tirgan, hanuzgacha bir so'z demagan boychechak gullarga ta'zim qilib, go'zallik – odob, andisha kabi xislatlar bilan yaralishini aytibdi. Binafshaxonga e'tibor bering u doim uyayib, boshini egib turadi. Bu zaminga cheksiz hurmat belgisidir. Shunday ekan, u malikamiz bo'lishga loyiq, – debdi boychechak. Atrofdagi barcha gullar boychechakning kamtarligiga qoyil qolishibdi va bir ovzodan uni gullar malikasi etib saylashibdi.

**Dilnavoz NAJIMOVA,**  
Chirchiq akademiy litseyi o'quvchisi

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

### JUMBOQ SO'Z

E'tiboringizga havola etilgan topqirlik mashqini hal etish uchun chizmaning o'ng tomonidagi bo'g'inlar bilan kulrang kataklar namunadagidek to'ldiriladi. O'ng va chap tomonda hosil bo'lgan so'zlar o'rtasidagi oq katakka kerakli harfni yozsangiz, yana bir so'z hosil bo'ladi. Mashqni yechish bilan oq katakli ustun bo'yicha yashiringan jumboq so'zni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

|    |   |    |   |   |   |   |   |   |    |   |    |
|----|---|----|---|---|---|---|---|---|----|---|----|
| SH | A | SH |   |   |   |   |   |   | I  | D | A  |
| K  | A | M  |   |   |   |   |   |   | M  | O | N  |
| SH | A | Y  |   |   |   |   |   |   | K  | O | P  |
| CH | I | R  |   |   |   |   |   |   | P  | A | R  |
| L  | I | N  |   |   |   |   |   |   | S  | O | N  |
| CH | A | SH |   |   |   |   |   |   | R  | A | S  |
| CH | I | N  |   |   |   |   |   |   | R  | A | K  |
| SH | A | R  | P | A | N | N | O | D | I  | R |    |
| J  | A | B  |   |   |   |   |   |   | Q  | I | SH |
| F  | A | R  |   |   |   |   |   |   | F  | A | R  |
| H  | O | L  |   |   |   |   |   |   | G' | O | R  |

|   |   |   |   |
|---|---|---|---|
| O | B | K | A |
| Z | A | A | R |
| L | I | B | A |
| L | A | O | Q |
| I | N | Z | A |
| A | D | M | A |
| D | A | O | Z |
| N | O | P | A |
| O | L | H | A |
| Z | A | A | Z |
| I | L | V | A |

19-sentyabr 2016



#### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yashlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Dilshod KENJAYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruz JALILOVA,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Sa'dullo TURSINOV  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV  
**Fotomuxbir**  
Zubayda  
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi – 26278  
Buyurtma – S 7021

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilindi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks:  
(99871) 244-63-08